

*Хорижий Шарқ мамлакатлари  
тарихий жараёнлари ва уларни  
ўрганишнинг долзарб муаммолари*

*Илмий-амалий конференция материаллари*



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА  
ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ**

**ХОРИЖИЙ ШАРҚ МАМЛАКАТЛАРИ  
ТАРИХИЙ ЖАРАЁНЛАРИ ВА УЛАРНИ  
ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ  
МУАММОЛАРИ**

*Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция  
материаллари тўплами*

**Тошкент - 2023**

“Шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик миқёсида илмий-амалий конференция. – Тошкент. 2023. № 9. 270 б.

**Таҳрир ҳайъати:**

Т. ф. д. , проф. Н. Э. Каримова  
Т. ф. д. , проф. С. Б. Шодманова  
Т. ф. н. Ш. И. Икромов  
Т. ф. н. К. С. Азимов  
Т. ф. н. С. М. Турсунова

**Тақризчилар:**

т. ф. д. , проф. А. Хасанов  
т. ф. н. , доц. Ю. Исмоилова

Тўплам Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ цивилизацияси ва тарих факультети Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (22. 06. 2023 й. № 11)

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2023

## **TURKISTON DAVRIY MATBUOTINING SHAKLLANISHI**

Rossiya imperiyasi hukmronligi ostidagi Turkiston general-gubernatorligi hududida, bosqinchilik tartibi sharoitida, mahalliy aholi orasida tashqi siyosiy jarayonlar va xalqaro aloqalarga bo'lgan qiziqish asta-sekin ortib bordi. Buni zamonaviy matbuotda e'lon qilingan maqolalar, publitsistik ocherklar va davriy nashrlar orqali kuzatish mumkin. Aslida, jadidlar harakati namoyandalari Turkiston general-gubernatorligi va butun Markaziy Osiyo xalqlarini dunyodagi geosiyosiy holatlardan xabardor qilish, ilg'or davlatlardagi ixtirolar va yangiliklar haqida materiallar tayyorlashni hali imperatorlik tartibi to'liq o'rnatilmasdan avvalyo boshlagan edi.

XIX asrning 1860-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi Turkistonda o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirib, ommaviy ongini shakllantirish maqsadida matbuot vositalaridan faol foydalana boshladi. 1870-yilga kelib "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining tashkil etilishi bu yo'nalishda rasmiy qadam bo'ldi. Ushbu nashr asosiy maqsad sifatida hukumat farmonlarini yetkazish, imperiya jamoatchiligini Turkiston voqeligidan xabardor qilish, shuningdek, mustamlakachilik siyosatini ideologik jihatdan asoslashni ko'zlagan edi.

Bu nashrda asosan harbiy mutaxassislar va imperiya markazidan yuborilgan mutaxassislar ijod qilgan. Ularning maqolalari Turkiston hududini iqtisodiy, siyosiy va etnografik jihatdan tadqiq qilishga yo'naltirilgan bo'lib, gazeta Rossiyaning axborot siyosatida muhim vositaga aylangan. "Turkestanskiye vedomosti" sahifalarida taniqli olimlar – N.A. Severtsev, A.P. Fedchenko, I.V. Mushketov, V.F. Oshanin, V.V. Bartold va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlari doimiy chop etib borilgan<sup>321</sup>. Ular o'z ilmiy tahlillari orqali Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini asoslashga xizmat qilgan. Ayniqsa, harbiylar, jumladan N.A. Mayev va A.P. Xoroshxin mazkur gazetaning faol mualliflari sifatida tanilgan<sup>322</sup>.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi siyosiy ustuvorligini mustahkamlash barobarida, axborot tarqatish jarayonini yagona markazga bo'ysundirishga va jamoatchilik ongini boshqarishga alohida e'tibor qaratdi. Shu maqsadda, 1870-yilda tashkil etilgan "Turkestanskiye vedomosti" strategik jihatdan muhim bo'lgan axborot vositasiga aylantirildi. Ayniqsa, gazetaning norasmiy bo'limida e'lon qilingan ilmiy-analitik maqolalar orqali imperiyaning tashqi siyosiy yo'nalishlari va xalqaro munosabatlarga doir qarashlar ommaga turli yo'llar bilan yetkazila boshlandi.

---

<sup>321</sup> Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент, 1886 – 65 с.; О'sha muallif. Туркестанская выставка предметов сельского хозяйства и промышленности в Ташкенте 1890 г. – Ташкент, 1890. – 163 с.; Арандаренко Г. А. Досуги в Туркестане. – СПб., 1889. – 666 с.; Хорошкин А.П. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – Ташкент, 1875. – 532 с.

<sup>322</sup> От Ташкента до Верного // Туркестанские ведомости (ТВ). – 1871. – № 27; От Самары до Ташкента // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 3, 4, 5, 6, 7; Верхнее течение Амударьи // Туркестанские ведомости. – 1880. – № 12, 17, 21.

1899–1900-yillarga kelib ushbu nashrning nusxalari hamda moliyaviy daromadi sezilarli ravishda oshganiga qaramay<sup>323</sup>, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan ma'muriy-siyosiy tizim unga iqtisodiy mustaqillik imkonini bermadi. Bu holat mustamlaka siyosatining axborot vositalari ustidan to'liq nazorat o'rnatish strategiyasiga to'la mos edi. Gazeta tahririyati bir necha marotaba moliyaviy mablag'larni o'z ehtiyojlariga sarflashga ruxsat so'ragan bo'lsa-da, ijobiy natijaga faqat 1901-yilga kelib erishdi<sup>324</sup>.

Gazetada chop etilgan materiallar Turkiston ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotini yoritishga xizmat qilgan bo'lib, ular orqali Rossiya imperiyasining tashqi siyosatini oqlash, mahalliy aholining imperiyaviy tartibga nisbatan ijobiy qarashini shakllantirish maqsad qilingan edi. Shu tarzda, “Turkestanskije vedomosti” nafaqat matbuot organi, balki Rossiyaning siyosiy manfaatlarini mahalliy jamiyatga singdiruvchi vosita sifatida faoliyat olib borgan<sup>325</sup>.

Imperiya ma'muriyati mahalliy xalqlarni axborot bilan ta'minlashda ham ruslashtirish siyosatini izchil davom ettirib, ularning ongi va dunyoqarashini o'z maqsadlariga mos yo'naltirishga harakat qildi. Shu maqsadda, 1883-yil 30-yanvardan boshlab “Turkiston viloyatining gazetasi” o'z faoliyatini boshladi. Bu gazeta haftaning bir kunida o'zbek, boshqa bir kunida esa qozoq tilida chop etilib, mahalliy tilda rasmiy ma'lumotlarni yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qildi.

Boshlang'ich bosqichda atigi 500 nusxada nashr etilgan gazeta, 1888-yilda 600, 1905-yilda esa 3700 nusxagacha ko'paygan. Biroq 1905–1907-yillardagi inqilobiy vaziyat ta'siri ostida uning obro'-e'tibori tushib ketdi va 1910-yilga kelib nashr soni 1850 nusxagacha kamaydi.

Shunga qaramay, mahalliy o'quvchilar turli mintaqalardagi musulmon va turkiy ziyolilar nashrlariga, masalan, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz” kabi mustaqil gazeta-jurnallarga katta qiziqish bildirishgan<sup>326</sup>. 1884-yilda “Tarjimon”ning 200 nusxasi Turkiston obunachilariga yetkazilgan bo'lsa, 1916-yilda “Vaqt” gazetasi muharriri Fotih Karimov shaxsan Turkistonga tashrif buyurib, mahalliy sharoit haqida ma'lumotlar to'plagan.

“Turkiston viloyatining gazetasi” rasmiy maqomga ega bo'lib, unda hukumat farmoyishlari va buyruqlari bilan bir qatorda, tarixiy, madaniy va geografik materiallar ham berilgan. Shunga qaramay, uning rasmiy bo'lmagan qismlari xalq orasida unchalik keng tarqalmadi. Bunga sabab, undagi maqolalarning murakkab tilda yozilishi, arabcha va forscha terminlarning ko'pligi va matnlarning qat'iy nazorat ostida bo'lishi edi.

Shunga qaramasdan, bu gazetaning axborot maydonida faoliyat yuritganlar faqat rasmiy amaldorlar emas edi. Mahalliy ziyolilar – Zokirjon Furqat<sup>327</sup>, Sattorxon

<sup>323</sup> O'zMA, I.1-jamg'arma, 8-ro'xat, 385a-ish, 2-varaq orqasi.

<sup>324</sup> К нашим читателям // Туркестанские ведомости. – 1909. – № 216.

<sup>325</sup> “Газет” деган сўзнинг маъноси нимадур? // Туркестон вилоятининг gazetasi. – 1883. – № 1, 2.

<sup>326</sup> O'zMA, I.1-jamg'arma, 17-ro'xat, 734-ish, 71-71 varaq orqasi.

<sup>327</sup> Фурқат. Танланган асарлар. II том. – Тошкент, 1959. – 123–159 б.

Abdug‘afforov<sup>328</sup>, Is‘hoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov kabi ma‘rifatparvarlar ham bu gazeta orqali jamiyatda ilm-fanga, tashqi olamdagi yangiliklarga qiziqish uyg‘otishga harakat qilganlar<sup>329</sup>.

Ayniqsa, Behbudiyning gazeta faoliyati jadidchilik g‘oyalarining rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. U va boshqa ziyolilar tomonidan yozilgan maqolalar, o‘sha paytdagi mustamlakachilik ideologiyasining biryoqlama targ‘ibotiga nisbatan muqobil – ma‘rifiy va milliy mazmunli axborot manbai sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, bu maqolalar rasmiy siyosat bilan to‘qnash kelmaydigan darajada ehtiyotkorlik bilan yozilgan, ya‘ni ular cheklangan doirada bo‘lsa-da, mustaqil fikr uchun imkoniyat yaratgan.

Gazetada faqat siyosiy emas, balki ta‘lim, iqtisodiyot, turmush tarzi va urf-odatlar haqida ham materiallar e‘lon qilinar edi. Bu esa jamiyatda tafakkur qilish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu yo‘sinda, gazeta mahalliy aholi va hukumat o‘rtasida muayyan axborot ko‘prigi vazifasini bajargan.

Shu davr mobaynida Farg‘ona viloyatida ham xuddi shunday maqsadlarga xizmat qilgan “Ferganskie oblastnie vedomosti” gazetasining tashkil topganini ko‘ramiz. Bu nashr ham rasmiy va norasmiy qismlardan iborat bo‘lib, Rossiyaga oid hamda xorijiy yangiliklarni telegraf orqali yetkazish bilan shug‘ullangan. Gazeta sahifalarida faqat imperiya ruxsat bergan va oldindan maxfiy tekshiruvdan o‘tgan axborotlarga e‘lon qilinar edi. Shu tarzda, tashqi siyosiy jarayonlar jamiyatga biryoqlama, imperiya manfaatlari doirasida yoritilgan<sup>330</sup>.

XIX asrning oxirlariga kelib, Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan rasmiy gazeta-jurnallardan tashqari, Turkiston hududida rus tilidagi xususiy matbuot vositalari ham paydo bo‘la boshladi. 1890–1898-yillar oralig‘ida nashr etilgan “Okraina”, “Russkiy Turkestan”, “Samarkand”, “Sredneaziatskaya jizn”, “Russkaya okraina” va “Na rubeje” kabi gazetalar rasmiy nashrlardan farqli o‘laroq, o‘z faoliyatini iqtisodiy shart-sharoitlar va mavjud siyosiy holat ta‘sirida olib bordi.

Bu xususiy nashrlarning umumiy jihati shundaki, ular rasmiy axborot siyosatidan chekinib, mustaqil tahliliy maqolalar, ijtimoiy va siyosiy mavzularni keng yoritishga intilishdi. Ular orqali Turkistondagi axborot muhitining shakllanishi, imperiya siyosatining mahalliy jamoatchilikka qanday ta‘sir o‘tkazayotganini ko‘rish mumkin edi. Bu gazetalar ba‘zan rasmiy siyosatga qarshi turadigan, ya‘ni muxolifona kayfiyatdagi nashrlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shuning uchun ularning muharrir va noshirlari ko‘pincha tazyiqqa uchragan. Masalan, 1917-yil 9-yanvarda “Turkestanskiy golos” gazetasi bosh muharriri A.A. Chaykin hibsga olinadi, 22-yanvarda gazetaning 18-soni chiqqach, 24-yanvar kuni general-gubernator A.N. Kuropatkinning buyrug‘i bilan gazeta faoliyatiga chek qo‘yiladi.

<sup>328</sup> Савицкий А. Сагтархон Абдугафуров–просветитель–демократ. – Ташкент: Узбекистан, 1965. – 46 с.

<sup>329</sup> Ҳожи Муин. Махмудхўжа Бехбудий // Зарафшон. – 1923. – № 48; Шунингдек: Зиё Саид. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.

<sup>330</sup> O‘zMA, I.19-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 28743-ish, 8-varaq.

XX asr boshlarida Rossiyada avj olgan inqilobiy harakatlar Turkiston mintaqasida ham siyosiy harakatlarni jonlantirdi. Natijada, Turkistonda turli siyosiy guruh va partiyalarga mansub nashrlar, jumladan, “Molot” (1906–1908), “Новый путь” (1906), “Tashkentskiy rabochiy” (1913) kabi gazeta-jurnallar chop etila boshlandi. Bu nashrlar imperiyaning siyosatini tanqid qilib, jamiyatni o‘zgartirish g‘oyalarini ilgari surdi. Ammo ularning aksariyati yashirin faoliyat yuritgan yoki qisqa muddatli bo‘lgan.

1905-yildagi birinchi rus inqilobidan so‘ng, Turkistonda milliy matbuot vujudga kela boshladi. Bu matbuot o‘zining mazmuni va maqsadi jihatidan rus tilidagi rasmiy va xususiy nashrlardan farq qilib, mahalliy aholining madaniy, ma‘naviy va ijtimoiy ongini yuksaltirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi.

Jadidchilik harakati vakillari matbuotni taraqqiyot vositasi sifatida qabul qilib, 1906-yilda “Taraqqiy”, “Xurshid”, 1907–1908-yillarda “Shuhrat”, “Osiyo” singari nashrlar orqali o‘z g‘oyalarini keng ommaga yetkazishga intildilar. Bu gazetalar, ayniqsa, rus matbuoti hamda Ismoil Gaspirali tahriridagi “Tarjimon” gazetasining tajribasidan o‘rnak olib shakllangan edi.

Jadid nashrlari qisqa muddat faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, buning sababi ularning mustamlakachilik mafkurasi bilan zid qarashlari, tsenzura bosimi hamda moliyaviy yetishmovchiliklar edi. Shu sababli bu gazetalar uzoq umr ko‘rmadi. Biroq ular Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish yasadi.

Jadidlar bir muddat milliy matbuotdan mahrum bo‘lib yashashga majbur bo‘lishdi. Ammo 1913-yil aprel oyida Samarqand shahrida Turkiston jadidlarining mashhur vakili Mahmudxo‘ja Behbudiy tahririda “Samarqand” gazetasi chop etila boshladi. Bu milliy uyg‘onish harakatida yangi bosqich edi<sup>331</sup>.

Jadidlar matbuotning ahamiyatini chuqur anglab yetgan edilar. “Sadoi Turkiston” gazetasida yozilishicha:

*“Millatda himmat egalari va ziyolilarni ko‘paytirish uchun ikki yo‘l bor: biri milliy matbuotni rivojlantirish, ikkinchisi esa yoshlarimizni muntazam ta‘lim maskanlariga kiritishdir.”*

Ushbu maqolada millatning moddiy va ma‘naviy yuksalishi uchun eng asosiy vosita — bu milliy matbuot ekani, shuningdek, ona tilisiz va milliy matbuotsiz taraqqiyot sari yurish mumkin emasligi alohida ta‘kidlanadi.

Ammo “Sadoi Turkiston” gazetasi doimiy tazyiq ostida faoliyat yuritgan. Hukumat bu gazetaning har bir sonini diqqat bilan kuzatib borar, agar rasmiy siyosatga zidlik aniqlansa, bu holat haqida darhol general-gubernatorga xabar berilishi talab qilinardi.

Gazeta shuningdek, iqtisodiy jihatdan ham og‘ir holatda edi. Avvaliga kundalik gazeta sifatida faoliyat boshlagan “Sadoi Turkiston”, keyinchalik haftada bir marotaba chiqadigan nashrga aylantirildi va hatto yopilish xavfiga duchor bo‘ldi.

<sup>331</sup> Бехбудий М. На учун илтифот этмайдурулар? // Самарқанд. – 1913. – № 36.

Bu holatda gazeta tahririyati xalqdan yordam so‘rab, mahalliy boylarga murojaat yo‘lladi.

*“10 million Turkiston xalqi bo‘lib, uchta gazetaning hayotini saqlay olmaymiz. Bu katta uyat emasmi? 4–5 millionlik tatarlar 30 dan ortiq gazeta chiqarmoqda, biz esa hanuz ota-bobolarimizdan qolgan aravada yuribmiz. Shunday holatda Turkiston taraqqiy etmoqda, deb yozishga qalam ham yo‘l qo‘ymaydi.”*<sup>332</sup>

Moliyaviy muammolarga yechim topish umidida, gazeta muharrirlari milliy teatr truppassi tuzib, Farg‘ona vodiysiga gastrol safari uyushtirdilar. Ammo bu tadbir ham kutilgan darajada natija bermadi va 1915-yil 10-aprelda “Sadoi Turkiston” gazetasi 66-son chiqarganidan so‘ng, mablag‘ yetishmasligi sababli to‘xtab qoldi.

Shunday qilib, milliy xususiy matbuot — ayniqsa, jadidlar harakatining axborot maydonidagi kurash tarixi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bu gazetalar orqali mustamlakachilik tomonidan joriy etilgan biryoqlama axborot muhitiga ma‘rifiy va tanqidiy yondashuv kiritildi. Ular jamiyatda siyosiy ongni uyg‘otishga, axborot manbalarini ko‘paytirishga va fikr erkinligini qaror toptirishga katta hissa qo‘shdi.

Hindiston matbuoti tajribasi va Angliya imperiyasining senzura yondashuvi

So‘nggi yillarda Britaniya hukumati Hindiston hududida faoliyat olib borgan mahalliy matbuotning yo‘nalishi va mazmuni tufayli chuqur xavotirga tushgan edi. 1886-yildayoq lord Defferin hind gazetalarining tobora mustamlakachilik siyosatiga qarshi yo‘naltirilayotganini sezib, ularning hukumatga nisbatan ochiqdan-ochiq salbiy kayfiyatlar va shubha uyg‘otayotganini aytib o‘tgan. U bu holat davom etsa, Hindistonning siyosiy barqarorligi jiddiy xavf ostida qolishini bashorat qilgan edi. Bu ogohlantirish keyinchalik haqiqatga aylandi va masala nufuzli “Imperial and Asiatic Review” nashrida batafsil muhokama qilindi.

Lord Ripon ilgari ilgari surgan g‘oyaga ko‘ra, “universitet tahsilini olgan mahalliy yoshlar, jumladan jurnalistlar, erkinlikdan oqilona va me‘yorida foydalanadilar”, degan edi. Ammo voqelik boshqacha kechdi. Hindiston matbuoti ko‘plab holatlarda Angliyaga qarshi norozilik, g‘azab va isyon ruhini tarqatishga xizmat qildi. Shu sababli diniy bayramlar vaqtida turli notinchliklar, mushtlashuvlar va tartibsizliklar avj oldi. Sadoqatli ingliz tarafdorlari haqorat qilindi, bu esa Britaniya hukumatini keskin choralar ko‘rishga majbur qildi.

Hindistonda matbuot erkinligi dastlab 1835-yilda Charlz Metkelf ichki ishlar vaziri bo‘lib ishlagan davrda joriy etilgan edi. O‘sha davrda deyarli barcha nashrlar inglizlar tomonidan yoki ularning tarafdorlari tomonidan boshqarilgan, mahalliy tillarda chop etilgan gazeta-jurnallar esa 200–300 nusxadan oshmagan. Bu sharoit 1857-yilgi yirik qo‘zg‘olonga qadar davom etdi. Ayni shu qo‘zg‘olondan so‘ng hukumat matbuot ustidan qattiq nazorat o‘rnatish zarurligini anglab yetdi.

Natijada, mahalliy tillardagi nashrlar ustidan senzura o‘rnatildi. Maxsus qonun qabul qilinib, hokimiyat matbuotni ogohlantirishsiz yopib qo‘yish huquqiga ega

<sup>332</sup> Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот // Садои Туркистон. – 1914. – № 44.

bo'ldi. Ko'plab muharrir va noshirlar hibsga olindi, bosmaxonalar yopildi, nashrlar musodara qilindi. Bir yilga mo'ljallangan bu qonun amalda 1868-yilgacha amal qilib, shundan keyingina bekor qilindi.

Shundan so'ng universitetlar tobora ko'proq talabalarni bitira boshladi. Ular esa hukumatga murojaat qilib: "Bizga ta'lim berdingiz, endi ish bering," degan talablar bilan chiqa boshladilar. Biroq har bir bitiruvchini ish bilan ta'minlashning imkoni yo'q edi. Bu noroziliklar oqibatida ko'plab savodli yoshlar jurnalistikani kasb sifatida tanlay boshladi.

1877-yildan boshlab Hindistonda mahalliy tillarda nashr etilayotgan gazeta-jurnallar soni keskin osha boshladi, ayniqsa Bengaliyada bu nashrlar yosh jurnalistlar tomonidan jamiyatdagi norozilikni ifodalovchi platformaga aylandi. Vaqt o'tishi bilan matbuotda Angliyaga qarshi chiqishlar kuchaydi. Gazetalar tahririyatlari isyon va norozilik ruhidagi maqolalar markaziga aylandi va hatto hukumat a'zolarini ham tanqid qilishdan tortinmadi.

"Imperial and Asiatic Review" maqolasida muallif quyidagi fikrni bildiradi:

"Holat hukumatni qat'iy chora ko'rishga undadi, ammo Britaniya hukumati matbuot erkinligini cheklash borasida ikkilanib turdi. Bu siyosat endi davom ettirilishi mumkin emasdi."

Natijada, lord Litton hukumati 1878-yilda maxsus qonun qabul qiladi. Bu qonunga muvofiq, mahalliy tildagi nashrlarning muharrir va noshirlari Angliyaga qarshi nafrat uyg'otuvchi yoki turli guruhlar o'rtasida adovat keltiruvchi hech qanday bayonot, maqola, rasm yoki belgini bosmaslik haqida kafolatnoma imzolashga majbur qilindilar. Bu qonun "Acta-Baillon" nomi bilan tanildi va qisqa vaqt ichida ijobiy natijalar berdi. Biroq faqat uch yil amal qilib, keyinchalik lord Ripon tomonidan qayta bekor qilindi. U ommaning e'tiborini qozonishni xohlab, bu choralarni ortga surdi. Afsuski, bu harakat o'z salbiy natijalarini ko'rsatdi.

Maqolalarda Hindiston dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mamlakat sifatida tasvirlanadi. 280 million aholidan har 100 kishidan 72 nafari yerni haydash bilan band edi. Shaharlarda yashovchi aholining soni 5 milliondan oshmas edi. Aholining ko'pchiligi savodsiz bo'lib, bu savodsizlik matbuotning ta'sir kuchiga to'siq bo'la olmadi. 1880-yillarga kelib Hindistonda 350 ga yaqin gazeta va jurnal chop etilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi haftalik yoki yarim oylik edi. Kundalik nashrlar kam bo'lsa-da, ularning soni yildan-yilga o'sib bordi.

Misol uchun, 1880-yillarda "Dainik" va "Bangobasi" nomli bengal gazetalar Hind matbuotining eng nufuzli nashrlari bo'lib, "Dainik" haftaning dastlabki besh kunida, "Bangobasi" esa shanba kunlari chop etilar edi. Ularning tarqalishi 6 mingdan 23 ming nusxagacha yetgan.

Bundan tashqari, Kalkutta, Bombay, Madras va Yuqori Hindiston hududlarida bir qancha mashhur gazeta va jurnallar faoliyat yuritgan. "Hindu Patriot", "Bengali", "Amrita Bazar Patrika", "Indian Mirror", "Indian Spectator", "Bombay Samachar", "Hindu", "Akhbar-i-Am", "Bharat Jivan" va boshqalar.

Ularning nashr formati oddiy bo‘lib, ba’zida bir soni Londondagi gazetaning bir sahifasiga teng hajmda bo‘lgan.

1883–1884 yillarda pochta orqali yuborilgan davriy nashrlar sonini 100 ta deb olinsa, 1883–1894 yillarda bu ko‘rsatkichning o‘sib borganini ko‘rish mumkin, jumladan, 1883–1884 yillarda 100 ta, 1888–1889 yillarda 150 ta, 1890–1891 yillarda 165 ta, 1893–1894 yillarda 192 tani tashkil etgan. Ya’ni, 1883–1884 yillarda 13 mln nusxa yuborgan pochta 1893–1894 yillarda 23 millongacha davriy nashrlarni yetkazgan. Ushbu hisobga Yevropadan kelgan jurnal va gazetalar kiritilmagan<sup>333</sup>.

Hindistondagi mahalliy matbuot faoliyatini tanqid qilgan holda “The Pioneer” gazetasi ingliz hukumati hodimlariga doimiy ravishda davriy nashrlar tomonidan hujum uyushtirilganligi kun sayin boshqaruvni tobora qiyinlashtirganligini ta’kidlagan. Bunday holga chek qo‘yish uchun “Imperial and Asiatic Review” keskin va qattiq choralarni ishga solishni taklif etadi, u lord Littonning siyosatiga, ya’ni zulm va nazorat siyosatiga qaytishni talab qiladi. «Sredneaziatskiy vestnik» tahririyati ushbu holat yuzasidan fikr bildirigan holda “agar Angliya hukmronligining kunlari mahalliy matbuot hujumlari sabab qisqarsa, bunday amaliyotlar bu hukmronlikni saqlab qolish usuli bo‘la olmaydi” deb qayd etadi<sup>334</sup>.

Angliya Hindistonida mahalliy matbuotining tarqalishi va faoliyati xususiyatlari haqida qiziqarli ma’lumotlarni chop etar ekan, «Sredneaziatskiy vestnik» tahririyatining maqsadi “o‘z yadrosi bilan hali organik ravishda qovushmagan va zarur madaniy darajaga yetmagan zabt etilgan xalqlarda matbuotning mustaqil, hech qanday to‘siqsiz rivojlanishi qanday zarar keltirishi mumkinligiga e’tibor qaratish”dan iborat edi<sup>335</sup>.

«Sredneaziatskiy vestnik» tahririyati bu masalada orientalistik pozitsiyada turgan holda mushatariylariga polyak va fin matbuotida ham ba’zan provinsiyalar mustaqillikka erishish g‘oyalari bilan chiqqanligi, ammo “bu provinsiyalarning aholisi sivilizatsiyalashgan, nasroniy xalqlar” bo‘lganligi sababli bunday fikrlar faqat oz sonli kishilar faoliyati bilan izohlanadi, degan fikrni ilgari suradi. Gazetada o‘lkada tatarlar ta’sirida islomchilik g‘oyalari xavfli ravishda tarqalayotganligi va musulmonlar kelib chiqishi, tili va dini jihatidan Rossiya imperiyasining asosiy aholisiga mutlaqo o‘xshamasligi, musulmonlar nasroniylikdan to‘liq chetlanish maqsadida ekanligi, ular jaholatda degan fikrni bildiradi. “Ular nasroniylik bilan turlicha rivojlanish darajasida va diniy toqatsizligi tufayli yaqin aloqaga kirishmaydi, ular bilan nikohga kirishmaydi va hatto eng ilg‘or namoyandalari ham oshkora ravishda Rossiyadan ajralishni istaydi. Qozon guberniyasidagi tatar aholisi, deyarli 350 yildan beri nasroniy muhitda yashab kelgan bo‘lsa-da, Ivan Grozniy zamonlaridagidek, ulardan hali-ham ajralgan holda turibdi, xuddi shunday hol

<sup>333</sup> Туземная печать в английской Индии // Среднеазиатский вестник. – 1896. - №4.

<sup>334</sup> Туземная печать в английской Индии // Среднеазиатский вестник. – 1896. - №4.

<sup>335</sup> O‘sha manba.

Qrimda, Kavkazda, Gʻarbiy Sibirda, qolaversa yaqinda qoʻshib olingan Turkistonda ham kuzatiladi”, deb yozadi<sup>336</sup>.

XIX asrning oxiri va XX asrning dastlabki yillarida Turkiston hududida tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarga nisbatan qarashlar, shuningdek, axborot oqimining shakllanishi ikki asosiy yoʻnalishda rivojlandi:

Davlat tomonidan nazorat qilinadigan rasmiy matbuot, yaʼni imperiyaning tashqi va ichki siyosatini oqlashga xizmat qiluvchi axborot vositalari;

Xususiyl, mustaqil yoʻnalishdagi matbuot, jumladan rus tilidagi norasmiy gazetalar hamda milliy jadidlar tomonidan tashkil etilgan nashrlar.

Rossiya imperiyasining axborot siyosati oʻzining markazlashgan, mafkuraviyl jihatdan izchil va siyosiy jihatdan nazorat ostidagi gazetalarl orqali amalga oshirildi. “Turkestantskie vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazetl” bu siyosatning asosiy tayanch vositalarl boʻlib, ular orqali imperiya:

Tashqi siyosatining qonuniyligini targʻib qilish,

Mahalliy jamoatchilik tafakkurini nazorat ostida ushlash,

Mustamlakachilik siyosatini ijobiy va zaruratli sifatida koʻrsatishni maqsad qilgan edi.

Ayniqsa, bu nashrlar xalqaro hodisalarni tahliliyl maqolalar orqali yoritib, Rossiyaning tashqi siyosiy yoʻnalishlarini asossiz tanqidlar emas, balki zarurat sifatida asoslashga intildi.

Ammo axborot makonida bitta yoqlama yondashuv ustun boʻla olmadi. Jadid ziyolilar tomonidan shakllantirilgan milliy matbuot — bu siyosiy maydonning boshqa bir qutbida turgan, lekin rasmiyl matbuot bilan bilvosita raqobatga kirgan axborot oqimidir. Ular “Taraqqiyl”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston” singari gazetalar orqali:

Aholida ilm-fanga, dunyo yangiliklariga va siyosiy oʻzgarishlarga nisbatan qiziqish uygʻotdilar,

Mustamlakachilik mafkurasiga qarshi maʼrifiyl-alternativ gʻoya sifatida xizmat qildilar,

Mahalliy jamoatchilikni mustaqil fikr yuritishga, siyosiy ong va fuqarolik masʼuliyatini his etishga chorladilar.

Jadidlar, ayniqsa, xalqaro tajriba, dunyodagi siyosiy voqealar, islohotlar va ilm-fan taraqqiyotini yoritib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirishga intildilar. Bu orqali ular Turkistonni global axborot makoni bilan bogʻlovchi koʻprikka aylanishni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻygan edilar.

Shunday qilib, Turkiston axborot maydoni tarixiy rivojlanishda ikki qarama-qarshi, ammo oʻzaro toʻldiruvchi oqimdan iborat boʻldi:

Imperiyaning markazlashtirilgan rasmiyl matbuoti — hukumat siyosatini himoya qiluvchi va jamiyat onginu nazorat qiluvchi mexanizm;

---

<sup>336</sup> Oʻsha manba.

Milliy matbuot – jadidlarning erkin fikr va ma’rifiy uyg‘onishni ilgari suruvchi axborot vositasi.

Bu ikki yo‘nalishning to‘qnashuvi, aslida, axborotning siyosiy vosita sifatida qanday ishlatilganini yaqqol ko‘rsatib beradi. Rasmiy matbuot har doim markaz manfaatlarini targ‘ib qilgan bo‘lsa, milliy nashrlar bu mafkuraga qarshi g‘oyaviy alternativ bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston axborot makoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bir tomondan — mustamlakachilikni oqlovchi imperiya matbuoti orqali, ikkinchi tomondan — erkinlik, ma’rifat va milliy uyg‘onishni targ‘ib qiluvchi jadid matbuoti orqali shakllandi.

Bu tarixiy jarayon Turkiston jamoatchiligida axborot madaniyati, siyosiy ong, va fikr erkinligi tushunchalarining shakllanishiga asos soldi. U bir vaqtning o‘zida repressiv tizim ichida mavjud bo‘lgan g‘oyaviy kurash, ma’naviy qarshilik, va mustaqil fikrlovchi jamiyat tomon harakat bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Арандаренко Г. А. Досуги в Туркестане. – СПб., 1889.
2. Зиё Саид. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.
3. Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент, 1886 – 65 с.;
4. Савицкий А. Сагтархон Абдугафуров–просветитель–демократ. – Ташкент: Узбекистан, 1965. – 46 с.
5. Туркестанская выставка предметов сельского хозяйства и промышленности в Ташкенте 1890 г. – Ташкент, 1890.
6. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – Ташкент, 1875. – 532 с.
7. О‘зМА, I.19-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 28743-ish, 8-varaq.
8. О‘зМА, I.1-jamg‘arma, 8-ro‘uxat, 385a-ish, 2-varaq orqasi.
9. О‘зМА, I.1-jamg‘arma, 17-ro‘uxat, 734-ish, 71-71 varaq orqasi.
10. “Газет” деган сўзнинг маъноси нимадур? // Туркистон вилоятининг газети. – 1883. – № 1, 2.
11. Бехбудий М. На учун илтифот этмайдурлар? // Самарқанд. – 1913. – № 36.
12. К нашим читателям // Туркестанские ведомости. – 1909. – № 216.
13. От Ташкента до Верного // Туркестанские ведомости (ТВ). – 1871. – № 27;
14. Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот // Садои Туркистон. – 1914. – № 44.
15. Туземная печать в английской Индии // Среднеазиатский вестник. – 1896. - №4.
16. Фуркат. Танланган асарлар. II том. – Тошкент, 1959. – 123–159 б.
17. Ҳожи Муин. Махмудхўжа Бехбудий // Зарафшон. – 1923. – № 48;

## MUNDARIJA

Асрий анъаналар билан ёрқин келажак сари.....	3
<i>А.Хасанов.</i> Абу Бакр Сиддик – Пайғамбарнинг биринчи халифаси.....	6
<i>Ш.Камолiddин.</i> Из истории Тохаристана в эпоху арабских завоеваний.....	13
<i>А.Ходжаев.</i> К проблеме локализации места первоначального обитания усуней и юечжи.....	24
<i>А.Дониёров.</i> Афғон халқи тарихшунослигига доир.....	43
<i>Н.Абдуллаев.</i> Узбекистан - Китай: академическое сотрудничество, не имеющее границ.....	54
<i>З.Арипова.</i> Султон Зоҳир Бейбарс ва унинг ҳукмронлик даври (1260-1277).....	59
<i>G.Yuldasheva.</i> Uzbekistan and the New Silk Road: Transport, Energy and Tourism in 2017-2019.....	67
<i>А.Худайбердиев.</i> Проблемы Объединенного Йемена.....	78
<i>К.Азимов.</i> Исроил ва Араб давлатлари ўртасида сув ресурсларини тақсимлаш соҳасидаги келишмовчиликлар.....	87
<i>Ш.Икромов.</i> Қатар ташқи сиёсатининг шаклланиши: кичик давлатнинг катта сиёсати.....	102
<i>Я.Пилипчук.</i> Курдские сепаратизм и квази-государственность в контексте политики Ближневосточного региона.....	122
<i>Ш.Акмалов.</i> О некоторых аспектах современных Узбекско-Пакистанских отношений.....	175
<i>О.Алимов.</i> Япониянинг Марказий Осиёдаги минтақавий сиёсати: “СА+1” форматининг генезиси ва ривожланиш тенденциялари.....	182
<i>Д.Ходжимуратова.</i> Эрон ташқи сиёсатида нодавлат ташкилотлар ва жамғармаларининг ўрни.....	189
<i>С.Толибова.</i> Ўзбекистон-Сингапур: ҳамкорликнинг янги тенденциялари.....	195
<i>А.Замонов.</i> Бухоро хонлиги ва Эрон муносабатларида Абулфайзхон ва Нодиршоҳ.....	201
<i>С.Гладких.</i> Культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан на примере Организации Тюркских государств.....	209
<i>О.Петросова.</i> Роль Израиля в турецко-сирийских отношениях.....	213
<i>А.Егамберdiyev.</i> Turkiston davriy matbuotining shakllanishi.....	222
<i>S.Mamatqulov.</i> Pokistonni ilmiy o‘rganuvchi aql markazlari haqida.....	231
<i>I.Xayrullayeva.</i> Hind xotin-qizlari ijtimoiy-siyosiy holatini yaxshilashda taʼlimning roli (kerala shtati misolida).....	241
<i>P.Rajarov.</i> Buyuk saljuqiylar davlati (1038-1157)da Nizomiya madrasalarining tashkil etilish jarayoni.....	245
<i>B.Allamurodov.</i> Raqamli diplomatiya va unga oid nazariy yondashuvlar....	251

<b>М.Эргашева.</b> Шанхайская организация сотрудничества (ШОС).....	255
<b>А.Очилова.</b> Япония миллий мафкурасининг хусусиятлари ва тарихий боскичлари.....	260
<b>А.Убайдуллаев.</b> Safaviylar va Shayboniylar o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar.....	268
<b>И.Тахирова.</b> В чем сложности перевода текстов с английского языка на русский.....	275

“Шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик миқёсида илмий-амалий конференция. – Тошкент. 2023. № 9. 270 б.

Тўплам Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ цивилизацияси ва тарих факультети Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (22. 06. 2023 й. № 11)

Bosishga ruxsat etildi: 12. 12. 2023

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 20, 75 b. t.  
100 nusxada bosildi. Buyurtma №

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universitetining kichik bosmaxonasi.  
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.

Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2023